



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

XALQARO HUQUQ VA G‘AZO FOJIASI: YOSHLARNING
FUQAROLIK POZITSIYASI VA ADOLAT IZTIROBI

Olimjonov Oyatbek

oyatbekolimjonov222@gmail.com

First-year student, Faculty of International Relations

University of World Economy and Diplomacy

under the Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan

Annotatsiya: Mazkur maqolada G‘azo sektorida yuzaga kelgan insoniy fojia, xalqaro tashkilotlarning pozitsiyasi, G‘arb va Sharq OAVlarining voqealarni yoritishdagi nomutanosibliklari chuqur tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, xalqaro huquq normalari, jumladan, Jeneva konvensiyasi va Rim statuti asosida Isroilning harbiy harakatlari tahlil qilinadi. BMT, Amnesty International, UNICEF va boshqa nufuzli tashkilotlar bayonotlari asosida real manzara aks ettiriladi.

Kalit so‘zlar: G‘azo, Isroil, Falastin, urush jinoyatlari, xalqaro huquq, OAV tahlili, Amnesty International, BMT, axborot buzilishi, namoyishlar, Jeneva konvensiyasi.

Аннотация: В статье рассматриваются гуманитарная катастрофа в секторе Газа, позиции международных организаций и несоответствия в освещении событий западными и восточными СМИ. Также проводится анализ военных действий Израиля с точки зрения международного права, включая Женевскую конвенцию и Римский статут. Основное внимание уделяется заявлениям ООН, Amnesty International, UNICEF и других авторитетных источников.



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

Ключевые слова: Газа, Израиль, Палестина, военные преступления, международное право, анализ СМИ, Amnesty International, ООН, искажение информации, протесты, Женевская конвенция.

Abstract: This article examines the humanitarian crisis in the Gaza Strip, the stances of international organizations, and the discrepancies in the coverage of the conflict by Western and Eastern media. It also analyzes Israel’s military actions from the standpoint of international law, including the Geneva Conventions and the Rome Statute. Statements from the UN, Amnesty International, UNICEF, and other credible sources are used to reflect the on-the-ground realities.

Keywords: Gaza, Israel, Palestine, war crimes, international law, media analysis, Amnesty International, United Nations, information distortion, protests, Geneva Convention.

Isroil–Falastin mojarosi zamonaviy geopolitikadagi eng uzoq davom etayotgan, murakkab va qonli nizolardan biridir. Ayniqsa, G‘azo sektorida kechayotgan voqealar insoniyat vijdonini larzaga soladigan darajadagi gumanitar inqirozga aylanib ulgurgan. Mojaroning ildizlari XX asr boshlarida boshlangan bo‘lsa-da, ayni damda bu ziddiyat kuchayib, xalqaro huquq, inson huquqlari, milliy ozodlik va hududiy yaxlitlik masalalari o‘rtasida keskin to‘qnashuvlarga sabab bo‘lmoqda. G‘azo sektori bugun dunyoning eng zich, lekin eng tahdidli yashash joylaridan biri bo‘lib qolmoqda. Millionlab tinch aholi doimiy blokada, bombardimonlar va elektr, suv kabi eng oddiy ehtiyojlardan mahrum holda yashashga majbur. Bir tomonda Isroilning xavfsizlikni ta‘minlash nomi ostida amalga oshirilayotgan harbiy amaliyotlari, boshqa tomonda esa HAMAS harakatining qarshiligi, mintaqani global mojarolar maydoniga aylantirgan. Bu



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

maqolada Isroil va Falastin o‘rtasidagi mojaroning tarixiy ildizlari, hozirgi bosqichdagi siyosiy va harbiy voqealar, xalqaro hamjamiyatning roli hamda G‘azo sektoridagi og‘ir ijtimoiy holat chuqur tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, axborot urushi va medialardagi tarafkashlik holatlarini ham ko‘rib chiqadi. Asosiy maqsad — ushbu mojaroda ortidagi real sabablarni ilmiy tahlil etish va yechim yo‘llarini izlashdir.

2023–2024-yillarda Isroilning G‘azo sektoriga boshlangan harbiy harakatlari natijasida, 47 mingdan ortiq falastinlik tinch aholi, jumladan, 16 mingdan ziyod bola halok bo‘lgan (UNICEF, 2024; UN News, 2024). Xalqaro Amnesty tashkiloti bu holatni “jinoiy darajadagi kollektiv jazolash” deb baholadi. Ayni vaqtda, Isroil armiyasi tomonidan ishlatilgan fosfor bombalari va tibbiy inshootlarga qilingan hujumlar haqida ko‘plab mustaqil tashkilotlar tomonidan dalillar to‘plangan. Bunday hujumlar xalqaro huquq doirasida baholanadi. 1949-yilgi Jeneva Konvensiyasi, xususan, IV Konvensiya tinch aholini urushdan himoya qilishni kafolatlaydi. Shuningdek, Xalqaro Jinoyat Sudi (ICC)ning 1998-yilgi Rim statutida “urush jinoyatlari” degan atama quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Tinch aholini nishonga olish, Gumanitar inshootlarga hujum qilish, Kollektiv jazolash va muhim resurslardan mahrum qilish. Yuqoridagi huquqiy mezonlar asosida olib qaralganda, G‘azoda amalga oshirilayotgan harbiy harakatlar xalqaro qonunbuzarlik va urush jinoyatlariga juda yaqin turadi. Gumanitar yordamlarga ruxsat bermaslik, shifoxonalarni bombardimon qilish va bolalar o‘limining yuqoriligi — bu faqat harbiy strategiya emas, balki xalqaro hamjamiyat uchun axloqiy va huquqiy muammodir. Xalqaro huquq bu kabi holatlarni aniqlashtirganiga qaramay, Isroilga nisbatan real jazo choralarining kuchsizligi xalqaro huquqning selektiv qo‘llanilishi muammosini ochib beradi. Men shaxsiy pozitsiyamda, G‘azodagi holatni xalqaro huquq nuqtai nazaridan "harbiy jinoyat" yoki hatto "genotsid" darajasiga yetgan mojaroda deb hisoblayman. Bu voqealar nafaqat bir xalqning fojiasi, balki xalqaro



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

adolat tizimining sinovi hisoblanadi. Agar tinch aholining ommaviy qirilishi xalqaro qonunlar bilan baholanmasa — bu kelajakdagi mojarolar uchun xavfli precedents (o‘xshash holat) bo‘lib qoladi. Bunday sharoitda xalqaro tashkilotlar, ayniqsa BMT va XJS (ICC), qattiqroq va amaliy choralarni ko‘rishi zarur. Bu esa faqat davlatlar emas, balki fuqarolik jamiyati va yoshlarning bosimi orqali sodir bo‘ladi.



2023–2024 yillardagi G‘azo mojarosida Isroilning harbiy amaliyotlari dunyo hamjamiyatida keng bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi va bu hozir ham davom etmoqda. BMT Bosh kotibi Antonio Guterrish urushni “odobsiz va bir tomonlama qirg‘in” deb atadi (UN News, 2024). Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron esa Isroilni “bolalarni o‘ldirish orqali o‘zini himoya qilolmasligini” ochiq aytdi (BBC, 2024). JAR, Boliviya, Bangladesh, Turkiya va boshqa ko‘plab davlatlar bu harakatlarni “urush jinoyatlari” deb atagan. AQSh va ba‘zi G‘arb davlatlari esa Isroilni ochiq qo‘llab-quvvatlagan, biroq AQShning o‘zida ham 2024-yil mart oyida minglab talabalar G‘azo bo‘yicha norozilik namoyishlari o‘tkazgan (Reuters, 2024).



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

Masalan, Isroil- Eron urushidan song Isroil bosh vaziri Benjamin Netanyahu “galabani” nishonlash va AQSH prezidentiga raxmat aytilish uchun Vashingtonda oq uyda mehmon bolgan paytda yuzlab namoyishchilar oq uy ostonasiga Netanyahu va uning hukumatiga shuningdek, AQSHning genotsidni qollab quvvatlashiga qarshi plakatlar va bayonotlar bilan chiqdilar. Xalqaro Inson huquqlari tashkilotlari – Amnesty International va Human Rights Watch – esa Isroilni tinch aholiga qarshi sistematik hujumda ayblagan. Yuqoridagi dalillar ko‘rsatadiki, Isroilning G‘azodagi harakatlari xalqaro miqyosda mutlaq bir xil baholanmagan, balki ikki qutbli yondashuv mavjud. Bular geosiyosiy jihatdan qollab quvvatlovchilar (AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya) va Huquqiy va axloqiy jihatdan tanqid qiluvchilar (musulmon davlatlar, BMT tashkilotlari, mustaqil OAVlar)dir. Bunday farq xalqaro siyosatning ikkiyuzlamachiligini yaqqol ko‘rsatadi. Ayniqsa, AQShning Isroilga harbiy yordam berayotgani va veto huquqi orqali BMTdagi qarorlarni to‘xtatayotgani xalqaro qonunlarga zid emasmi, degan savolni tug‘diradi (Reuters,2025). Isroilning G‘azodagi harakatlariga nisbatan mavjud baholar xalqaro tizimdagi haqiqiy “adolat” va “kuch” o‘rtasidagi ziddiyatni fosh qiladi. G‘arb davlatlari, ayniqsa AQSh, Isroilni o‘zining strategik ittifoqchisi deb bilgani uchun, huquqiy bahoni siyosiy manfaatga bo‘ysundirgan. Bunda “inson huquqlari” faqat ayrim davlatlarga nisbatan ishlaydi, degan tamoyil shakllanmoqda. Bu esa xalqaro huquqqa ishonchni yemiradi, Ittifoqchilik selektivligi orqali mojaroni chuqurlashtiradi hamda tinchlik muzokaralarini imkonsiz qiladi. Isroilning o‘z pozitsiyasi esa: bu harbiy amaliyotlar o‘zini himoya qilish doirasida amalga oshirilmoqda, degan da’vogarlik bilan asoslanadi. Biroq statistik ma’lumotlar va OAVlarning faktlari bu da’voni ziddiyatli holatga olib chiqmoqda — ayniqsa bolalar, ayollar va tibbiy xodimlar qurbonlarining ko‘pligi fonida. Muallif sifatida men xalqaro hamjamiyatning bu boradagi ikkiyuzlamachiligini qat’iy tanqid qilaman. Inson huquqlari universal bo‘lishi kerak, siyosiy ittifoqlar



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

uchun emas, butun insoniyat uchun amal qilishi lozim. Isroilning G‘azodagi harakatlari xalqaro huquq me‘yorlarini buzmoqda va bunga xalqaro hamjamiyat faqat “bayonot” bilan emas, amaliy choralar bilan javob berishi kerak. Dunyo siyosiy tengsizlikda emas, axloqiy va huquqiy me‘yorda ishlashi kerak. G‘azodagi qirg‘in esa bu tartibni shubha ostiga qo‘ymoqda. Yoshlar — ayniqsa xalqaro munosabatlar va huquq bilan shug‘ullanayotgan talaba sifatida — tashqi siyosatdagi bu ikkiyuzlamachilikni o‘rganish, fosh qilish va odil pozitsiyani yoqlashlari zarur. Faqat kuch emas, axloq va qonun ustuvor bo‘lishi bu tinchilikning shuningdek minglab bolalar jonining garovidir.

G‘azo bo‘yicha sodir bo‘layotgan mojaroga dunyo yoshlari e‘tiborsiz emas. 2024-yil davomida AQSh, Kanada, Fransiya, Germaniya, Iordaniya va Malayziyada va boshqa bir qator davlatlarda talabalar minglab odamlar ishtirokida namoyishlar uyushtirdi. Ular Isroilga qurol sotishni to‘xtatishni, G‘azoda tinchlik o‘rnatilishini talab qildi (Al Jazeera, 2024). Ko‘plab oliy ta‘lim muassasalari, jumladan Harvard, Stanford va SOAS London universitetlarida talabalarning rasmiy bayonotlari e‘lon qilindi. Ijtimoiy tarmoqlarda “Free Palestine”, “CeasefireNow” va “GazaUnderAttack” heshteglar orqali milliardlab ko‘rishlar qayd etildi. O‘zbekistonda ham ayrim yoshlar Telegram kanallari, YouTube bloglar, va boshqa platformalarda o‘z pozitsiyasini ochiq bildirgan. Bu faktlar shuni anglatadiki, zamonaviy yoshlar nafaqat mahalliy, balki global adolatsizliklarga ham befarq emas. Yoshlarning fuqarolik pozitsiyasi – bu nafaqat siyosiy jarayonlarga munosabat, balki insoniy qadriyatlarga sodiqlikning ko‘rinishi. Xususan, axborot texnologiyalari zamonida talabalarning faolligi virtual maydondan real hayotga ko‘chib bormoqda. Yoshlar pozitsiyasi — siyosiy hokimiyatga bevosita ta‘sir ko‘rsatmasa-da, ijtimoiy va axloqiy bosimni shakllantiradi. AQShda talaba namoyishlari sababli ayrim universitetlar Isroil bilan hamkorlik shartnomalarini



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

qayta ko‘rib chiqmoqda. BMT va Amnesty International yoshlarning global faolligini “axloqiy uyg‘onish to‘lqini” deb atagan. Shu bilan birga, informatsion urushlar sababli ayrim yoshlar yolg‘on yoki biryoqlama ma‘lumotlar qurboni bo‘lishi ham mumkin. O‘zbek yoshlari uchun bu voqea — mustaqil tahlil qilish, o‘rganish, va axloqiy nuqtai nazarini shakllantirishdagi katta sinovdir. Muallif sifatida men yoshlarning pozitsiyasi — bu kelajak siyosiy elitasi shakllanishidagi eng muhim omil, deb hisoblayman. G‘azo bo‘yicha ochiq fikr bildirgan, tahlil qilgan, pozitsiyasini himoya qilgan har bir yosh — jamiyatda ongli, prinsipial fuqarolikning boshlanishini ifodalaydi. Shu sababli, yoshlarning sukut saqlashi — bu shunchaki betaraflik emas, g‘ayriinsoniylik qarshisida yengilishdir. Yoshlar — axborot asrining kuchli tomonidir. G‘azo qirg‘ini misolida ular o‘zlarining: axloqiy tayanchi, intellektual mustaqilligi va fuqarolik mas‘uliyatini sinovdan o‘tkazmoqda. Biz — yoshlar — insoniyat nomidan adolat talab qilishga haqlimiz. Faqat xalqaro tashkilotlar emas, balki har bir vijdonli talaba ham tarix oldida javobgarlikni his qilishi kerak.

2023–2024-yillardagi G‘azo mojarosi butun dunyo OAVlarida yoritildi. Biroq berilgan axborotlar: Ba‘zilarida haqqoniy (BBC, Al Jazeera, TRT World), ba‘zilarida esa qasddan buzib yoki noto‘liq (Fox News, CNN, va ayrim Isroilga sodiq AQSh portallari) tarzda berildi (Al Jazeera, 2024). Ayniqsa, 2023-yil 17-oktabrda G‘azodagi Al-Ahli Baptist Hospitalga uyushtirilgan hujumda: Al Jazeera va BBC bu hujumni Isroil raketasi bilan bog‘ladi, CNN dastlabki daqiqalarda “aniq manba yo‘q” deb bergan bo‘lsa-da, keyinchalik Isroil versiyasini ilgari surdi, New York Times rasmiy pozitsiyalar orasidagi farqni ochiq berganiga qaramay, birinchi sarlavhasini o‘zgartirishga majbur bo‘ldi (Al Jazeera, 2023). Bu voqea dunyo OAVlari xolislik mezonlariga qanchalik amal qilishini, va axborot urushi qanday ishlashini ko‘rsatadi. Dezinformatsiya — bu nafaqat yolg‘on, balki haqiqatni yashirish, muayyan faktni inkor etish yoki faqat bir tomonning versiyasini berishdir.



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

OAVda haqqoniylik, ayniqsa qurolli mojaralarda — bu fuqarolik ongini shakllantiruvchi kuchdir. Noto‘g‘ri axborot esa jamiyatda g‘azab, adolatsizlik va yomon stereotiplarga olib keladi. G‘azo bo‘yicha OAVlarning ishi tahlil qilinsa, quyidagilar ajralib chiqadi: G‘arb OAVlarining Isroilni “himoya qilish”ga qaratilgan axborot siyosati ochiq ko‘rinadi. Ayniqsa AQSh va Buyuk Britaniya OAVlari ko‘p hollarda Isroil versiyasiga tayangan. Shu bilan birga, Al Jazeera, TRT, Russia Today kabi OAVlar voqealarni teran yoritgan bo‘lsa-da, ular ham “nisbiylik” muammosidan xoli emas. O‘zbekistonda esa asosan Telegram, Instagram va YouTube’dagi shaxsiy sahifalar orqali fikrlar tarqalmoqda. Bu esa filtsiz va emotsional kontentni ko‘payishiga olib kelmoqda. Axborot urushi shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy talaba endi faqat iste‘molchi emas — balki ta‘sirchi va tarqatuvchiga aylandi. Muallif sifatida men dezinformatsiyaning jahon tinchligi uchun yadro qurolidek xavfli qurol ekanini ta‘kidlayman. Haqiqatni yashirish — bu insoniyatga qarshi xufya urushdir. Yoshlar — ayniqsa OTM talabarlari — har qanday ma‘lumotni tanqidiy baholay olishga va “bir tomonlama axborot”ning ichida yo‘qolib ketmaslikka o‘rganishi zarur. aqiqiy ma‘lumot — bu fikr shakllanishining asosi. OAVlar axloqiy, huquqiy va jurnalistik mezonlarga qat‘iy amal qilishi zarur. Yoshlar esa birlamchi manbaga tayanish va tahlil asosida xulosa chiqarishi, axborotni tarqatayotganda insoniy mas‘uliyatni his qilishi lozim. Shundagina G‘azo singari mojarolar global haqiqat bilan to‘liq aks ettiriladi.

G‘azodagi mojaro bugungi xalqaro tizimdagi eng og‘riqli va murakkab sinovlardan biridir. Ushbu maqolada ko‘rib chiqilgan dalillar shuni ko‘rsatadiki, Isroilning harbiy amaliyotlari nafaqat inson huquqlari, balki xalqaro huquq va geosiyosiy adolat me‘yorlarini ham keskin savol ostiga qo‘ymoqda. Xalqaro tashkilotlarning sust harakati, G‘arb davlatlarining selektiv yondashuvi, va ommaviy axborot vositalarining ayrim hollardagi dezinformatsion siyosati — bu mojaroning



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

nafaqat harbiy, balki axloqiy va axborotli urushga aylanishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, tinch aholi, xususan ayollar va bolalar orasidagi qurbonlar soni ushbu mojaroga faqat “harbiy nizolar” nuqtayi nazaridan emas, insoniyat sha’ni va vijdoni mezonida baho berilishi kerakligini taqozo etadi. Bu kontekstdagi eng umidli va e’tiborga loyiq kuch — bu yoshlardir. Bugungi talabalar dunyo voqealarini kuzatibgina qolmay, o‘z fuqarolik pozitsiyasini ochiq bildirmoqda, ijtimoiy tarmoqlar va akademik maydonlarda adolat uchun kurashmoqda. Aynan yoshlarning mustaqil fikrlashi, analitik qarashi, va global mas’uliyatni his qilishi — kelajakdagi barqaror dunyo poydevorini belgilaydi. O‘zbek yoshlarining bu jarayonlardagi ishtiroki — shunchaki tomoshabinlik emas, balki xalqaro fuqarolik madaniyatining shakllanayotganidan dalolat beradi. Shu nuqtai nazardan, G‘azo bo‘yicha shakllanayotgan talabalik pozitsiyasi — bu kelajakda tashqi siyosatni olib boradigan, xalqaro adolatni targ‘ib qiladigan va haqqoniylik uchun kurashadigan yangi avlod siyosatshunoslari, diplomatlari va liderlarining ilk sabog‘idir. Xulosa qilib aytganda, bu mojaro – har bir yosh uchun tanlov: betaraflikda yashashmi yoki adolat yo‘lida harakat qilishmi.

Biz tanladik. Biz yozdik. Biz pozitsiyadamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. UNICEF. Thousands of Children Killed as Conflict in Gaza Escalates. New York: UNICEF, 2024. <https://www.unicef.org/press-releases/thousands-children-killed-conflict-gaza-escalates>
2. UN News. UN Agencies Raise Alarm as Gaza Death Toll Surpasses 47,000. United Nations, May 2, 2024. <https://news.un.org/en/story/2024/05/1141457>
3. Amnesty International. Israel/OPT: Evidence of war crimes as Israeli attacks wipe out entire families in Gaza. October 20, 2023.



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

<https://www.amnesty.org/en/latest/news/2023/10/israel-opt-evidence-of-war-crimes-as-israeli-attacks-wipe-out-entire-families-in-gaza/>

4. Amnesty International. Israel: White phosphorus used in densely populated areas of Gaza amounts to war crimes. October 27, 2023. <https://www.amnesty.org/en/latest/news/2023/10/israel-white-phosphorus-in-gaza-war-crimes/>
5. International Committee of the Red Cross (ICRC). Geneva Convention Relative to the Protection of Civilian Persons in Time of War (Fourth Geneva Convention). August 12, 1949. <https://ihl-databases.icrc.org/en/ihl-treaties/gciv-1949>
6. United Nations. Rome Statute of the International Criminal Court. July 17, 1998. <https://www.icc-cpi.int/sites/default/files/RS-Eng.pdf>
7. UN News. UN Chief Calls Gaza a “killing field,” Blames Israeli Aid Blockade. United Nations, April 8, 2025. <https://www.france24.com/en/middle-east/20250408-un-chief-gaza-israel-aid>
8. Reuters; Turner, Cath, and Jonathan Allen. “Gaza Protests Grow at US Colleges, Thousands Demonstrate in Brooklyn.” Reuters, April 24, 2024. <https://www.reuters.com/world/us/pro-palestinian-seders-planned-new-york-other-cities-college-campuses-simmer-2024-04-23/>
9. Reuters. “France’s Macron Urges Israel to Stop Bombing Gaza.” Reuters, November 11, 2023. <https://www.reuters.com/world/middle-east/frances-macron-urges-israel-stop-bombing-gaza-2023-11-10/>



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

10. Reuters. “US College Campus Protests over War in Gaza Escalate.” Reuters, April 26, 2024.
<https://www.reuters.com/pictures/pro-palestinian-protests-us-universities-spread-across-country-2024-04-26/>
11. Reuters. “Netanyahu Meets Trump at White House as Israel, Hamas Discuss Ceasefire.” Reuters, July 8, 2025. <https://www.reuters.com/world/middle-east/netanyahu-meet-trump-white-house-israel-hamas-discuss-ceasefire-2025-07-07/>
12. Reuters. “U.S. Vetoes UN Security Council Call for Gaza Ceasefire.” Reuters, June 5, 2025. <https://www.reuters.com/world/middle-east/us-will-veto-un-security-council-resolution-gaza-war-its-current-form-says-2025-06-04/>
13. Al Jazeera „Pro-Palestinian student protests spread in second week of demonstrations.“ Al Jazeera, April 27, 2024.
<https://www.aljazeera.com/news/2024/4/27/pro-palestinian-student-protests-spread-in-second-week-of-demonstrations>
14. Amnesty International Canada. “Youth Activism Archives.” Amnesty International Canada. (Accessed July 2025). <https://amnesty.ca/youth-activism/>
15. Al Jazeera. “Failing Gaza: Pro-Israel Bias Uncovered Behind the Lens of Western Media.” Al Jazeera, October 5, 2024.
<https://www.aljazeera.com/news/2024/10/5/failing-gaza-pro-israel-bias-uncovered-behind-the-lens-of-western-media>
16. Al Jazeera. “Investigations Reveal Discrepancies in Israel’s Gaza Hospital Attack Claims.” Al Jazeera, October 20, 2023.
<https://www.aljazeera.com/news/2023/10/20/what-have-open-source-videos-revealed-about-the-gaza-hospital-explosion>